

---

## Farg'onada viloyat xotin-qizlar qo'mitasining hisobot-saylov konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Bugun 10 dekabr kuni viloyat tadbirkorlar markazi majlislar zalida Farg'ona viloyati xotin-qizlar qo'mitasining hisobot-saylov konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiyani O'zbekiston Oliy Majlis senati a'zosi, O'zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova olib bordi. Ushbu anjumanda Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisi T.K.Norboeva ishtirok etdi.

Kun tartibiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil, 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi Farmoni ijrosini ta'minlash borasida Farg'ona viloyat Xotin-qizlar qo'mitasining vazifalari to'g'risida hamda tashkiliy masalalar kiritilgan.

Xotin-qizlar qo'mitasi viloyat bo'limi hisobotini qo'mita boshqaruvi a'zosi Xadicha Karimova o'qib eshittirdi.

Muzokaralarda Xalq qabulxonasi viloyat bo'limi rahbari Robaxon Mahmudova, "Nurli obod" fermer xo'jaligi raisi Lolaxon Murotova, XDP viloyat bo'limi raisi Dilbarxon Mamajonova, IIB XPB boshlig'i o'rinbosari Azim Yuldashov, "Tadbirkor ayol" uyushmasi raisi Di lorom Mehmonovalar so'zga chiqdilar.

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan qaror loyihasi asos uchun kiritildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Yig'ilishda tashkiliy masalalar ham ko'rildi. 39 kishidan iborat boshqaruv qo'mitasi tasdiqlandi va o'qib eshittirildi. SHuningdek, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi Konferensiyasiga viloyatdan 27 nafar delegatlar saylandi. SHuningdek, nazorat-taftish komissiyasi tarkibi, boshqaruv tarkibi a'zolari ham saylab olindi.

Konferensiyada O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi raisi Tanzila Norboevaga so'zga chiqdi. Uning ma'ruzasidan so'ng savol-javoblarga o'rin berildi. T.Norboeva viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisligiga Qosimova Dilafruz SHavkatovna nomzodini ko'rsatdi. D.Qosimova viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi etib saylandi.

Anjuman so'ngida D.Qosimovaga so'z oldi va bildirilgan oliy ishonchni oqlashga so'z berdi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati

2018-12-10 18:32:50